

HAYVONLARNI MUHOFAZA QILISH

Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi

2- bosqich talabalari

Ortiqova Mukarramoy

Abduhalilova Naziraxon

Annatatsiya: Tabiatdagi mavjud har bir hayvon turi o'ziga xos va mos biror – bir funksiyani bajaradi.U tabiat uchun ortiqcha emas. Bundan shunday ekologik xulosa kelib chiqadiki, birorta hayvon turning yo'qolishi yoki me'yordan ortiqcha kamaytirib yuborilishi biosferdagi jarayonlarning maromini buzadi va tabiiy muvozanatni izidan chiqaradi.

Аннотация: Каждый вид животных в природе выполняет уникальную и подходящую функцию, которая не является лишней для природы. Из этого можно сделать экологический вывод, что исчезновение каких-либо видов животных или чрезмерное их сокращение сверх нормы нарушает порядок процессов в биосфере и нарушает природное равновесие.

Annotation: Every species of animal in nature performs a unique and suitable function. It is not superfluous for nature. An ecological conclusion can be drawn from this that the loss of any animal species or its excessive reduction beyond the norm disrupts the order of processes in the biosphere and derails the natural balance.

Kalit so'zlar : Hayvon, ekologiya, iqlim, inson y ,tadqiqot ,monitoring, progress, samaradorlik , Ключевые слова: Животные, экология, климат, человек, ветеринария, исследования, мониторинг, прогресс, эффективность, биосфера.

Key words: Animal, ecology, climate, human, research, monitoring, progress, efficiency,

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra yer yuzida hayvonlarni 1,5 – 2 mln. turi ma'lum. Tabiatdagi mavjud har bir hayvon turi o'ziga xos va mos biror bir funksiyani bajarishga moslashgan. Bundan shunday ekologik xulosa kelib chiqadiki, birorta hayvon turining yo'qotilishi yoki me'yоридан ortiqcha kamayib ketishi biosferdagi jarayonlarning ma'romini buzadi va tabiiy muvozanatni izidan chiqaradi. Bugungi kunda Hayvonlar turli sohalarda o'ziga xos foydalaniladi. Xususan , oziq – ovqat mahsulotlari olishda, sanoat xomashyosi, dori – darmonlar olish, go'sht, tuxum, pat, boshqa dekorativ maqsadlarda, bezak buyumlari sifatida(chig'anoq, sadaf) suvlarni tabiiy tozalashda , gulli o'simliklarni changlatishda, hamda inson xo'jlik maqsadlarida .

Insoniyatga ishlab chiqarish faoliyati yani antropogen ta'siriga kuchli duchor bo'lган dastlabki tabiiy komponentlardan biri hayvonot dunyosi hisoblanadi. Inson olov va turli qurollarga ega bo'lган davrlardan boshlaboq hayvonotga faol ta'sir eta boshlagan. Bundan 250 ming yil avval (paleolit davri) dan boshlab inson ularga sezilarli tazyiq o'tkaza boshladi. Ilmiy tahminlarga qaraganda, yirik, kam sonli hayvonlar antropogen ta'sirning dastlabki qurbanlari bo'lishgan. TMXI ning ma'lumotlariga ko'ra, 1600 yillardan to hozirgacha turli ta'sirlar tufayli sayyoreamizdagi qushlarning 94 turi (1,9 %) va sutemizuvchilarning 63 turi (1,5 %) qirilib ketgan. Shu jumladan, qushlarning 8 turi (1,6%) va sutemizuvchilarning 47 turi (1%) bevosita antropogen omili ta'siri oqibatida yo'qotilgan. Yo'q bo'lган turchalar haqida esa to'liq ma'lumot yo'q.

Hayvonlarni muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish atrof – muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora – tadbirlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bunday chora -tadbirlarning asosiy maqsadi, hayvonotlarning turli salbiy antropogen va tabiiy ta'sirlar ostida qirilib ketishining oldini olish va ular sonini o'z – o'zini tiklash darajasida ushlab turishdan iboratdir. Bunga quydagilar orqali erishiladi:

- Ovchilik va balq ovlashni tartibga solish;
- Hayvonlar keng tarqalgan hududlarning ekologik sharoitlarini yaxshilash;
- Hayvonlarning foydali va zararli turlarini ilmiy assosda to'g'ri aniqlash, ular sonini va ekotizmdagi mutanosibligini ta'minlash;

- Hayvonlarni tabiiy va antropogen (texnogen) ofatlardan himoyalash
- Hayvonlarni akklimatizatsiya va reakklimatizatsiyalashni ilmiy asosda tashkil etish;
- Hayvonlar, qushlar va baliqlarning ko'payishi, dam olishi, qishlash joylarini maxsus muhofazaga olish;
- Hayvonlarning ko'payishi va yashashi uchun maxsus sun'iy o'rmonzorlar, o'tloqlar, daraxtzorlar tashkil etsh;
- Hayvonlarning pestitsidlar va boshqa zaharli moddalardan zaharlanishining oldini olish;
- Xalq xo'jaligining turli sohalaridagi qurilkish va ishlab chiqarish jarayonlarida hayvonlarni muhofazalash talablariga qat'iy amal qilish;
- Hayvonotlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lif – tarbiya va ommaviy targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etish;
- Hayvonotlarni muhofazalashga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularga rioya etilishini qat'iy nazorat ostiga olish.

Yo'qolish arafasida turgan hayvon turlarini o'rganish va muhofazalashda TMXI ning o'rni juda kattadir. U 1948 – yildan boshlab bu sohada katta ishlarni amalga oshirdi. Natijada, xalqaro "QIZIL KITOB" 1963 -yildan boshlab nashr etirra boshlandi.

QIZIL KITOBVA MUHOFAZAGA OLINGAN TURLAR

O'zbekistonda chop etilgan yangi «**Qizil kitob**»da 24 tur sut emizuvchilar, 51 tur qushlar, 16 tur sudralib yuruvchilar, 18 tur baliqlar kiritilgan. Umurtqasiz hayvonlardan turli sistematik guruhlarga kiruvchi 80 turi kiritilgan. O'zbekiston mustakillikga erishgan kunidan boshlab jamiyatni demokratlashtirish va tabiatni muxofaza kilish soxasidadagi qonunchilik ishlari tobora takomillashtirilib bormokda. «Tabiatni muxofaza kilish to'g'risida»(1992), Alovida muxofaza qilinadigan tabiiy xududlar to'g'risida»(1993), Hayvonot olamini muxofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»(1997), shuningdek Vazirlar maxkamasi tomonidan tasdiqlangan bir qator xujjalalar asosida hayvonot olami muxofaza qilinmoqda. Bulardan tashqari O'zbekiston

Respublikasi 1995-yilda Biologik xilma-xillik to'g'risidagi va Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo'lgan suv-botqoqli joylar to'g'risidagi (2001-yil Ramsar) Konventsiyalarga qo'shilgan. So'nggi o'n yilliklar davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi. Jumladan : **Turon yo'lbarси, gepard, turkman quloni, orol sulaymon balig'i** kabi hayvonlar umuman yo'q bo'lib ketdi. Qoplon , Sirtlon , yo'rg'a tuvaloq, sirdaryo va amudaryoning kichik va katta kurakburunlari, orol baxrisi kabilalar esa yo'q bo'lib ketish arafasida turibdilar. Ko'plab hayvon turlarining soni hozirda tanglik poyonida bo'lmasada, lekin uzlusiz kamayib bormoqda. Bularning barchasiga sabab, hududlarning xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilishi, atrof -muhitning ifloslanishi, biologik resurslardan me'yorsiz foydalanishdir.



TURON YO'LBARSI GEPARD



OROL SULAYMON BALIG'I



TURKMAN QULONI

Hayvonlarni muhofaza qilishni yaxshilash :Qonunchilik, Ta'lim va individual harakatlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Fikrimizcha,

Hayvonlarni yanada muhofaza qilish uchun -hayvonlarni muhofazalashga oid keng qamrovli qonunlarni qabul qilishni qo'llab - quvvatlash va himoya qilish;

mavjud qonunlarni mustahkamlash maqsadida, yangi qonunchilikni joriy qilish uchun qonun chiqaruvchilar va hayvonlarni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorliklarni yo'lga qo'yish;

hayvonlarni qutqaruv tashkilotlarini qo'llab – quvvatlash;
o'z mahsulotlarini yaratishda tajribalarni hayvonlarda sinab ko'ruchchi kompaniyalarini qo'llab -quvvatlamaslik;
ko'proq o'simliklarga asoslangan ovqatlanishni targ'ib qilish;
yovvoyi tabiatning yashash joylari va yo'qolib borayotgan turlarni muhofazalash tashabbuslarini ko'plab yaratish va ishtirok etish;
biologik xilma-xillikni saqlash va yovvoyi tabiatning noqonuniy savdosiga qarshi kurashuvchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu qadamlarni qo'yish orqali hayvonlar sonining keskin kamayishi oldini olishimiz hamda, ularning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar : O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi / O'zRFA, O'zR Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ; taxrir xayati J.Azimov, N.M.Umarov,I.M.Mirabdullayev va boshq.;

J.2 Hayvonot olami

P.S.Sultonov EKOLOGIYA VA ATROF -MUHITNI MUHOFAZA QILISH ASOSLARI